




# 1-mavzu: O'qitishning zamonaviy texnologiyalari (O'ZT) fanining maqsadi va vazifalari



## Reja

1. O'ZT fanning maqsadi va vazifasi.

2. Dunyoda infarmasiya miqdorini zudlik bilan ko'payib borayotgaliti va o'qitish jarayonini jadallashtirish zarurligi.

3. O'qitish jarayonini jadallashtirish omillari, didaktikaning ko'rgazmalilik prinsipi.

# O'qitishning zamanoviy texnologiyalari fanining maqsadi

bo'lajak muxandis-pedagoglarni zamonaviy ta'lim texnologiyasi nazariy asoslari bo'yicha bilimlarni shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonlariga qo'llashda zarur bo'ladigan ta'lim vositalari va texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

O'qitishga texnologik yondashish o'tgan asrning 50 yillarida amerikalik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan. «*taъlim texnologiyasi*» iborasi ham birinchi marta amerikalik olim *b.Ckiner* tomonidan ishlatilgan. Lekin, o'qitish texnologiyasi o'zining rivojlanish tarixiga ega bo'lpib, uning shakllari har doim axborot vositalari manbaiga bog'liq holda takomillashib kelgan.

Yozuv ixtiro qilinishidan avvalgi davrda hamma to'plangan axborotlar og'zaki shaklda saqlangan. Odam bir vaqtning o'zida:

ham bilimlar  
yaratuvchisi

ham  
saqlovchisi

ham  
uzatuvchisi  
bo'lgan

O'tgan asrning 60 yillarida ta'lim texnik vositalarining rivojlanishi axborot sig'imi va axborot o'tkazish tarmoqlarini kengaytirdi. axborot saqlashning yangi usullari – magnit, ramkali optik yozuvlar va ular asosida yaratilgan magnit disklari, disketalar, kompakt disklar, CD-ROM kabilarning paydo bo'lishi axborot saqlashning kompyuterlashtirilgan tizimi, lazerli aloqa tarmog'i, mikroelektron qurilmalar va boshqa axborot vositalaridan o'quv jarayonida foydalanishga yo'l ochdi. Hatijada o'qitish takomillashdi, «Kompyuter texnologiyasi» va «Яngi axborot texnologiyasi» kabi tushunchalar vujudga keldi. bu texnologiyalar pedagogik texnologiyani amalga oshirishda zamonaviy texnik vosita sifatida qo'llana boshlandi.

XVI asrga kelib ixtiro qilingan mexanik qurilmalar muskul kuchini chegaralay boshladi. XVIII asrdagi ilmiy izlanishlar ishlab chiqarish sohasidagi revolyutsiyaga turtki berdi. Par mashinasini ixtiro qilinishi natijasida hamma muskul kuchi bilan ishlaydigan dastgohlar par mashinasi yordamida harakatlanadigan dastgohlarga almashtirildi. Ixtirochilik, bilimga bo'lgan chanqoqlik ushbu davrda avj oldi.

Ilmdagi va ishlab chiqarishdagi o'zgarishlarga qaramay, kelajak avlodni o'qitish usullari unchalik o'zgarmadi. asrlar davomida kitob ilm olishda asosiy yordamchi bo'lib qolaverdi. albatta, o'qituvchilar chyot, doska, globus kabilardan avvallari ham foydalanganlar. Lekin sinf xonalarini haqiqiy mexanizatsiyalash xx asrning ikkinchi yarmidan amalga osha boshladi.

bu davrda elektron texnika, hisoblash texnikasi, yadro energetikasi, kosmos, kibernetika sohasida katta kashfiyotlar qilindi, ular asosida yangi texnika va texnologiyalar yaratildi, avtomatlashtirilgan zavodlar barpo qilindi.


Фан ва texnika sohasidagi bu ulkan o'zgarishlar shu sohada ishlovchi kadrlar sonining, chop qilinayotgan maqolalar sonining va iqtisodiy xarajatlarning eksponentsiyal o'sishiga olib keldi.

O'qitish jarayonini  
jadallashtirish va  
optimallashtirish  
deganda

o'quvchi va pedagogning  
mehnat samaradorligini  
oshiruvchi, vaqt birligi ichida  
o'quv informatsiyasi  
miqdorini o'quvchilarga  
etkazishni ko'paytiruvchi va  
uni yaxshi o'zlashtirishga  
imkon beruvchi tadbirlar  
nazarda tutiladi.

ta'bliming  
ko'rgazmaliilik tamoyili

idrok etishni osonlashtirishi va nazariy bilimlarni hayot, amaliyat bilan bog'lash imkonini beradi. bu tamoyil o'rganilayotgan hodisalarga qiziqishni oshiradi, bilim va ko'nikmalarni puxtarloq egallashga yordam beradi.



Ko'rsatmali qo'llanmalarни namoyish etish mehnat usullarini ko'rsatish, texnik talablarni tahlil qilish, ishlarni bajarish texnologiyasi va h.k.larni ko'rsatish bilan tabiiy mos kelishi kerak. Ko'rsatmali qo'llanmalarни o'rganilayotgan material mazmuni va vaqt bo'yicha zarurat kelganda namoyish etish kerak. Hamoyish etishni so'zlash bilan muvofiqlashtirish lozim. Co'zlash ko'rsatmali qo'llanma namoyishini boshlab beradi, kuzatib boradi va yakunlaydi. mashg'ulotni ko'rsatmali qo'llanmalar va boshqa vositalar namoyishi bilan ko'mib tashlash yaramaydi. Hamoyish qilish jarayonida mumkin qadar ko'p analizatorlarni: ko'rish, eshitish, hid bilish, taъm bilish va boshqalarni ham ishga solish zarur.